

**"AMERIKA ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MODERNIZM DAVRI ADABIY-
ESTETIK QARASHLARI"**

Muxayyoxon Matqobulova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi
muhammadmatqobulova@gmail.com

Annotatsiya: *Har bir davr o'ziga xos estetik qadriyatlarni shakllantirib, adabiyotning tabiati va vazifasiga yangicha nuqtai nazarlarni kiritgan. Amerika adabiyotshunosligida adabiy-estetik qarashlar ko'p asrlilik tarixga ega bo'lib, turli davrlarda adabiyotning tabiati, vazifasi va estetik qadriyatlari haqida xilma - xil fikrlar va nazariyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada Amerika adabiyotshunosligi modernizm davrida shakllangan adabiy-estetik qarashlarning tarixiy taraqqiyoti, asosiy yo'nalishlari va namoyandalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *modernizm, adabiy - estetik qarashlar, qo'lyozma, adabiy – tahlil, Buyuk Getsbi, adabiy meros, xronologiya, Jazz asri.*

Modernizm davri adiblari an'anaviy shakllardan voz kechib, yangi ifoda usullarini qidirishdi. Modernizm da estetik qarashlar individual tajriba, subjektivlik va shakl yangilanishiga asoslangan bo'lib, bu yo'nalishda ijod qilgan Skott Fitsjerald, Uilyam Folkner kabi adiblar inson psixologiyasi, zamonaviy hayotning murakkabligi va tashvishlarini o'ziga xos modernistik uslubda namoyon etishdi.

F. Skott Fitsjerald asarlari, xususan, Buyuk Getsbi ("The Great Gatsby"), XX asr Amerika adabiyotining eng muhim namunasidir va ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Jumladan, Josef Blotner (Joseph Blotner) Fitsjerald bo'yicha yetakchi mutaxassis bo'lib, "Bir Epic ulug'vorlik: F.Skot Fitsjerald hayoti" (Some Sort of Epic Grandeur: The Life of F. Scott Fitzgerald) (1981) asarida uning hayoti va ijodini o'quvchiga taqdim etgan.

Amerikalik adabiyotshunos va nashriyotshunos Jeyms L. W. West III esa, F. Skott Fitsjeraldning asarlarini nashrga tayyorlash, ularning qo'lyozmalarini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri hisoblanadi.

Trimalchio: "Buyuk Getsbi" ("Trimalchio: An Early Version of 'The Great Gatsby'») (2000) kitobi Fitsjeraldning Buyuk Getsbining dastlabki versiyasi bo'lib, "Trimalchio" nomi bilan tanilgan. Jeyms West ushbu qo'lyozmani nashrga tayyorlab, Getsbi xarakterining dastlabki variantlardagi farqlarini ko'rsatib bergan. Buyuk Getsbi "The Great Gatsby" ning dastlabki qo'lyozmalarini o'rganish orqali, Fitsjeraldning yozuv jarayonidagi o'zgarishlar va Getsbi xarakterining shakllanishini tahlil qilgan. U "Fitsjerald o'z davrining eng yirik modernist yozuvchilaridan biri bo'lib, uning asarlari Amerika orzusi,

boylik, muhabbat va axloqiy inqiroz mavzularini chuqur ochib beradi “ degan xulosaga keladi.

“Ehtiyotsiz odamlar: Qotillik va tartibsizlik, Buyuk Getsbi yaratilishi ”, "Careless People: Murder, Mayhem, and the Invention of The Great Gatsby" (2013) asarida Fitsjerald romanining tarixiy va madaniy kontekstini o'rganib, bu haqda batafsil ma'lumot bergan olim Sara Chervell hisoblanadi. Bu kitob F. Skott Fitzjeraldning “Buyuk Getsbi” (The Great Gatsby) romanini yozish jarayoni, ilhom manbalari va 1920-yillar Amerikaning murakkab ijtimoiy-madaniy sharoiti to'g'risidagi tadqiqot hisoblanib, u tarixiy voqealar, gazeta maqolalari va Fitzjeraldning shaxsiy hayotini o'rganib, roman qanday shakllanganini ko'rsatib beradi. Kitob nomi Fitzjeraldning “Buyuk Getsbi” asaridagi quyidagi mashhur iqtibosga asoslangan: "Ular beparvo odamlar edi, Tom va Daisy – ular barcha narsalarni barbod qildilar va keyin o'zining puliga yoki ulkan beparvoliklariga suyanib, boshqalar o'sha narsalarni yig'ib yurishiga qo'yib berishardi." Bu iqtibos Fitzgerald tasvirlagan jamiyatning axloqsizligi, mas'uliyatsizligi va haddan tashqari boylikka qaramligiga ishora qiladi. Chervell esa ana shu beparvolikning manbalarini izlaydi va o'z asarida yoritib beradi.

1920-yillar "Jazz asri" deb atalgan bir davrda tez boyish, jinoyatchilik, noqonuniy alkogol savdosi va axloqiy inqiroz keng tarqalgan edi. Manbada 1922-yilning kuzida sodir bo'lgan haqiqiy qotillik voqealari Fitzgeraldga ilhom bergan bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Adiba “Buyuk Getsbi” romani shunchaki sevgi hikoyasi emas, balki Amerika orzusining inqirozi va axloqiy buhron haqida ekanligini ta'kidlaydi.

Qotillik va tartibsizlik (Murder & Mayhem)da – Chervell 1920-yillarda sodir bo'lgan haqiqiy jinoyatlar Fitzgeraldning hikoyasiga qanday ta'sir qilganini o'rganadi.

“Buyuk Getsbi” yaratilishi (The Invention of The Great Gatsby) – kitob “Buyuk Getsbi” asarining yozilishi, Fitzgeraldning nimalardan ilhomlanganini va uning tarixiy konteksti tushuntirilib, adabiy tahlil, tarix va biografiya uyg'unligida yozilgan va adib asarlari bilan qiziqqan har bir kishi uchun muhim manba hisoblanadi.

Sara Chervell F. Scott Fitzgeraldning bir necha asarlarini o'rganish bilan birga ularni bir-biriga bog'lik holda tahlil etdi. Jumladan, “Nozik tun”, (Tender Is the Night) (1934) romanini uning boshqa ijodlari, ayniqsa Buyuk Getsbi (The Great Gatsby) bilan aloqador ekanligini o'rgangan. U bu kitobni Amerika orzusi inqirozi, ruhiy tushkunlik, boylik va axloqiy tanazzul mavzulari orqali tadqiq qildi. Uning fikricha, “Nozik tun”, (Tender Is the Night) Fitzgeraldning shaxsiy hikoyalarlaridan biri bo'lib, u rafiqasi Zelda Fitzgerald bilan bo'lgan murakkab munosabatlarini aks ettirgan. Badiiy asar bosh qahramoni Dik Diver – iste'dodli psixiatr, lekin u boylik, shon-shuhrat va shaxsiy muammolar ta'sirida o'z salohiyatini yo'qotadi. Chervell buni Amerika orzusining buzilishi sifatida tushuntiradi va 1920-yillardagi Yevropaning dardli hayotini tasvirlaydi, lekin Fitzgerald bu hayotning ichki bo'shligini ko'rsatishga harakat qilgan. U “Nozik tun, (Tender Is the Night) ning murakkab vaqt strukturasiga e'tibor qaratadi:

romanda retrospektiv (o'tgan voqealar keyinroq ochiladi) uslub qo'llanilgan. Fitzgerald buni dastlab Getsbiga o'xshash tarzda yozmoqchi bo'lgan, lekin keyinchalik hikoyaning markaziga Dick va Nicole munosabatlarini joylashtirgan. Bu uslub o'quvchini boshida chalg'itsa ham, kitobning oxirgi qismida Dickning fojiali qismati to'liq ochib beriladi. Sara Churchvell "Nozik tun"ni adibning eng tragik va psixologik jihatdan chuqur ishi deb hisoblaydi va uning tahlilicha, bu asar "Buyuk Getsbi", ga o'xshash ravishda boylik, muhabbat va insoniy orzularning buzilishiga oid hikoya bo'lib, undan ham shaxsiyroq va chuqurroq ruhiy portretni aks ettiradi.

Ruth Prigozy (1930–2017) — taniqli adabiyotshunos va u ham F. Scott Fitzgerald ijodini chuqur o'rgangan yetakchi mutaxassislardan biri bo'lib, Hofstra universitetida ingliz tili professori sifatida faoliyat yuritgan va F. Scott Fitzgerald jamiyatining ijrochi direktori lavozimida ishlagan. Prigozy o'zining "F. Scott Fitzgerald" nomli asarida yozuvchining hayoti va ijodini mukammal tahlil qilib, Jazz davrining yuksalishi va qulash jarayonlarini aks ettirgan. Shuningdek, u "F. Skott Fitsjeraldning Kembrij hamrohi", "The Cambridge Companion to F. Scott Fitzgerald" kitobini tahrirlagan va unda Fitzgeraldga bag'ishlangan maxsus maqolalar to'plangan. Prigozyning hissasi Fitzgeraldning adabiy merosini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning tadqiqotlari yozuvchining asarlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Undan Fitsjerald uni nega bunchalik qiziqtirganini so'rashganda, u ikkilanmay: "Til. Uning ishi juda chiroyli yozilgan. Shunday parchalar borki, sizni to'xtatib qo'yadi va siz ularni qayta o'qishga majbur bo'lasiz. Va yana mavzular - boylik va qashshoqlik o'rtasidagi qarama-qarshilik, shuningdek, uning yoshlar kurashini qadrlashi" deb javob bergan. Uning nashrlari orasida 2006 yilda chop etilgan "Dik Xeymsning hayoti: endi kichik, yolg'on yo'q" asari, 2001 yilda tahrir qilingan F. Skott Fitsjeraldga bag'ishlangan "Kembrij hamrohi", shuningdek, 2004 yilda chop etilgan F. Skott Fitsjeraldning biografiyasi mavjud. U, shuningdek, Fitsjeraldning klassik asarlarini qayta nashr qilishda kirish yozuvlarini taqdim etgan.

Uilyam Folkner (William Faulkner) bo'yicha ham adabiyotshunoslarning tahlillari mavjud bo'lib, uning modernistik uslubi, janubiy gotika va tajribaviy yozuv uslubi olimlar tomonidan keng qamrovli o'rganib chiqilgan. Klins Bruks (Cleanth Brooks) o'zining "Uilliyam Folkner: Yoknapatafa yurti" ("William Faulkner: The Yoknapatawpha Country" (1963) va "Uiliyam Folkner: Yoknapatafa tomon va undan keyin", ("William Faulkner: Toward Yoknapatawpha and Beyond") (1978) asarlarida Folkner romanlarining adabiy tanqidiy tahlilini taqdim etadi. Bu kitob William Folknerning adabiy olami, yozuv uslubi va janubiy Amerika madaniyatini aks ettirish usuli haqida adabiy tanqidi xaqida bo'lib, Bruks Fokner tomonidan hayolan yaratilgan Yoknapatafa okrugi orqali uning romanlarida qanday ijtimoiy va axloqiy muammolar ko'tarilganini o'rganadi. U adibni modernizmning eng yirik vakillaridan biri sifatida ta'riflaydi va uning asarlarida ong oqimi taxnikasi, vaqt

va hikoya strukturasining noan'anaviyligi haqida yozadi, shuningdek yozuvchini axloqiy va falsafiy yondashuvlarini ham sharhlaydi. Taniqli adabiyotshunos olim Maykl Milgeyt ham William Faulkner ijodini yoritib, "The Achievement of William Faulkner" asarini yaratadi. Ushbu tadqiqotda Milgeyt Faulknerning adabiy yutuqlarini tahlil qilib, uning ijodlaridagi mavzular, uslublar va badiiy mahoratini o'rganadi. U o'zining "Faulkner's Place" kitobida esa adibning ishlari va ularning janubiy Amerika adabiyotidagi o'rnini ochib beradi hamda yozuvchining ijodiy merosini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

"Lion in the Garden: Interviews with William Faulkner, 1926-1962": James B. Meriwether bilan hamkorlikda tahrirlangan ushbu to'plamda Faulknerning turli yillarda bergan intervyulari jamlangan bo'lib, ular yozuvchining ijodiy jarayoni va shaxsiy hayotini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Millgate'ning ushbu ishlari Faulkner asarlarini keng izlanishga va uning adabiy merosini kengroq tushunishga katta hissa qo'shgan. Michael Millgate "The Achievement of William Faulkner" (1966) kitobida muallifning yozuv uslubi va janubiy adabiyotdagi o'rnini o'rganadi.

Amerikalik adabiyotshunos va tanqidchi, Harold Blum ham yuqorida nomlari keltirilgan olimlar qatori William Faulkner ijodini keng qamrovda o'rgangan va uning asarlarini yuqori baholagan. Uning tahriri ostida "William Faulkner" nomli kitob nashr etilgan bo'lib, unda yozuvchining hayoti va ijodi haqida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, muallifning asarlariga oid tanqidiy maqolalar jamlangan. Bloom, shuningdek, "William Faulkner's The Sound and the Fury" nomli kitobni nashr ettirgan, unda turli tanqidiy maktablarning maqolalari, ijodkorlar haqida ma'lumotlar, adibning hayotiy voqealari xronologiyasi va indeks keltirilgan. Olimning fikricha, Faulkner Amerikaning eng kuchli yozuvchilaridan biri bo'lib, uning asarlari o'quvchilarga individual ong va jamiyatni o'z-o'zidan himoya qilishga yordam beradi. Boshqa olimlardan farqli ravishda, Harold Bloom Faulknerning modernizm va modernistik tajribalar bilan bog'liq jihatlarini muhokama qiladi. Bloomning adib haqidagi tahlillari va baholari adabiyotshunoslikda muhim o'rin tutadi va kitoblarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa: Amerika adabiyotshunosligida adabiy-estetik qarashlar turli bosqichlarda har xil falsafiy va ijtimoiy jarayonlarga asoslanib rivojlandi. Har bir davr, jumladan, modernizm davri ham o'ziga xos estetik prinsiplarni ilgari surgan va bu orqali adabiyotning nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini oshirgan. Amerika adabiyoti bugungi global madaniyatda ham o'zining chuqur estetik va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi.

1. Faulkner, W. (1929). The Sound and the Fury.
2. Fitzgerald, F.S. (1925). The Great Gatsby.
3. Pound, E. (1917-1962). The Cantos.
4. Bradbury, M. (1976). Modernism: A Guide to European Literature 1890–1930.
5. Eysteinsson, A. (1990). The Concept of Modernism.
6. Жураева, Л. (2024). Ўзбек ва инглиз насрида халқ мақолларининг аҳамияти (“Бахтиқаро Керри” ҳамда “Кеча ва кундуз” асарлари мисолида). *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1/S), 255-259.
7. Muhayyo, M. (2021, February). TEACHING VOCABULARY USING GRAMMAR TRANSLATION METHOD AND COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING. In E-Conference Globe (pp. 76-77).
8. Matqobulova, M. (2021). THE APPLICATION OF VIDEO CLIPS WITH SMALL GROUP AND INDIVIDUAL ACTIVITIES TO IMPROVE YOUNG LEARNERS'SPEAKING PERFORMANCE. *Экономика и социум*, (2-1 (81)), 228-230.